

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ
VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

REFERAT

Mavzu: Anketa, test va suhbat metodlari

Bajardi: Boymatova D

Anketa, test va suhbat metodlari

Reja:

- 1. Anketa metodi.*
- 2. Anketa metodining yutuq va kamchiliklari.*
- 3. Test metodi.*
- 4. Standartlashtirilgan va rasmiylashtirilgan suxbatlar.*
- 5. Suhbat rejasi va turlari.*

Anketa fransuzchadan tarjima qilinganda tekshirish (raseledovaniya) demakdir. Anketa metodi ommaviy faktlar, umumiy sabablar, tendensiya va voqealarning belgilari kabilarni bilishga mo'ljallanadi. Anketa tekshirilayotgan guruh javob berishi lozim bo'lgan, ma'lum mavzuga oid savollar ro'yxatidan iborat bo'ladi. Uning maqsadi boshlangich, chamalash uchun zarur bo'lgan materiallarni yig'ishdir. Anketa pedagogik tadqiqotga sosiologiya va psihologiya orkali kelganligi uchun ham shu fanlar tadqiqot metodlari xususiyatlarini saklaydi. Savollar faqat bir o'quvchiga berilmasdan, balki ko'pincha, o'quvchilar ommasigaberiladi., javoblar yozma shaklda olinadi.

Anketa jamoatchilik fikrini bilishga xizmat qiladi. Lekin anketa metodining ommaviy kullanishininig ba'zi bir xaflitomonlari ham bor. Anketa savollari berilgan javoblarbolaning haqiqiy tarbiyalanganlik darajasini hamma vakt ham ko'rsatavermaydi. Chunki ba'zan tadqiqot ob'ekti yoki undan nima so'ralayotganini tushunmaydi yoki undan nima talab qilinayotganini anglaydi va shunga mos javob qaytarishga urinadi.

Savol to'g'ri berilmasa ham bolalar javobga xakikatni bo'zib ko'rsatadilar. Savollar to'g'ri kuyilgan bo'lsa, ob'ektiv ma'lumotlar olinadi. Shuningdek, anketadagi savollarning ko'pchiligi ularning tuzilishidagi kamchiliklar, savolga to'g'ri javob berishdagi psihologik tayyorgarlikning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Amaliyot anketalarning turli xillari mavjud. Anketa intervallarida anketa savollarini tadqiqotchining o'zi tuldiradi. O'quvchilarning fikrlarini aniqlashtirish, savollarni to'g'ri tushunishlarga yordam berish, javobning motivini tushuntirish uchun ham tadqiqotchi shunday qiladi. Lekin tadqiqotchi savolga javoblarning bir necha variantini ko'rsatish bilan birga o'quvchilarning o'z fikrini aytishi uchun ham alohida joy qoldiradi. Anketalar pochta orqali ham jo'natilishi mumkin. Bolalar o'rtasidagi anketa savollarini tashkil qilish ham mumkin.

Anketa qo'llash juda kulay va shubxasiz, juda katta kimmatga ega:

1) o'quvchilar savollariga javob berish o'z qarashlarini asoslashga majbur bo'ladilar va bu esa bolaning fikrlarini asoslashga o'rgatadi, undan nima xakda so'ralayotgan bo'lsa, unga munosabati harakterini belgilaydi.

2) anketa juda ko'p kishilar guruhi jalb etiladi, bu esa bolalarning umumiy qarashlari, tushunchalaridagi umumiy yutuq va kamchiliklarini aniqlashga imkon beradi:

3) anketa yordamida bu yoki bu masalada bolalarning jamoatchilik fikrlarini aniqlash mumkin.

4) anketa materiallari asosida ma'lum sharoitda bolaning atrof olam bilan bir tomonlama aloqasi o'rnatiladi, uning ma'naviy rivojlanish darajasi belgilanadi va x. Ma'lumotlar ishonchli bo'lishi uchun anketa so'roqlariga bir xil bolalardan kamida 400 tasi qatnashishi lozim.

Anketa so'roqlari natijasiga olingan materiallar qayta ishlanadi bir guruh boshqa guruhlar bilan solishtiriladi va chiqarilgan xulosalar bolalar tarbiyasi uchun foydalaniladi.

Anketani tuzishda quyidagi umumiy rioya qilish zarur.

1) Avval o'rganilayotgan proses, voqea va hodisaning strukturasini aniq predmetini, tadqiqot ob'ektini aniqlash va ular asosida ma'lum bir holda kuzatish, boshqasida maxsus tashkil qilingan vaziyat, uchinchisidan anketa ma'lumotlari va boshqalar orkali ulchsh lozim bo'lgan kriteriyalarni tanlash. Anketalar yordamida quyidagi aniq son ma'lumotlarni olish mumkin.

a) belgilar buyicha o'quvchilar mikdori: jinsi, yoshi, ma'lumoti, oilasining ta'minoti, demagrafik ma'lumotlar kishloklik yoki shaharlik o'quvchi, kishlokda to'g'ilgan joyi va yashaydi, kishlokda to'g'ilgan va shaharda yashaydi, shaharda to'g'ilgan va yashaydi va shunga o'xshashlar.

b) faoliyatining turli xillari davomida sarf qilingan vakt ish vakti, bosh vakt va boshqalar.

v) u yoki bu faoliyatning harakteri va mazmuni. Masalan: uyin soni ma'lum yoshdagi turi, o'z ma'lumotini oshirishga o'quvchilar informasiyasini qaysi manbalardan foydalandi, o'quvchi ularga kanchalik vakt sarfladi, ya'ni televizor kurish, gazeta o'qish, teatrqa borish va boshqalarga.

g) jixoz, predmet, vaziyat, sharoit, vazifa umuman nima o'quvchi ota - onasi hayoti obrazini harakterlasa shular haqida:

d) bolaning oilasidagi, sinf jamoaidagi urni, bolalarning bir-birlari bilan kattalar bilan munosabatlari.

e) anketalar jamoatchilik fikrini, tipik muloxaza va boshqa tadqiqot metodlari bilan bog'langan holda kullanishi talab qilinadi.

2. Anketani tuzishda uning mazmunini o'rganilayotgan prosess yoki hodisaning strukturasi bilan mos kelishi talab etilishi e'tiborga olish lozim. Buning uchun anketa so'roqlaridan olinadigan asosiy informasiyani oldindan aniqlash mumkin. Anketadagi savollar shunday tuzilishi kerakki, javoblar tadqiqot predmetining bosh programma-siga mos, maksimal ishonchli ma'lumotlar bersin.

Anketadagi savollarda bosh savolga javobnng ob'ektivligini tekshiradigan savollarning bo'lishi ham nazarda to'tishi lozim.

Masalan: “ Sening matematikaga munosabating qanday?” degan savol “O'z sevgan predmetingni ayt?”, “ Sening sevgan o'qituvching?”, “ Sening sevgan mashg'uloting?” kabi savollar bilan tekshiriladi.

Anketa savollariga javoblar prognozining tuzish nima uchun shunday sonli natijalar kutilishini tushuntirish maqsadga muvofiq. Bu anketa natijasida olingan materiallarni tushuntirishda muhim ahamiyatli bo'ladi.

Nihoyat informasiya tuplash metodikasini ishlab chiqish kerak, qachon qanday sharoitda anketa so'roqlari utkaziladi va ma'lumotlarni qanday aniqlashtirish kerak va boshqalar.

3. Boshlang'ich to'zilgan savolni ishchi darajasiga keltirish.

a) shunday qilish kerakki, savolga javoblar matematik statistik va sosiometrik yordamida matematik natijalar chiqarishga imkon bersin.

b) gaplar shunday tuzilishi kerakki, unda so'ralayotgan shaxsga xurmat, aks etsin, savol ob'ektiv javobga chorlasin: “ Sizdan iltimos klamiz”, “ Marhamat qilib ayting”, “ sizni fikringiz qanday”, “javoblaringiz uchun cheksiz minnatdorman” va boshqalar.

v) boshlang'ich to'zilgan savolni hamma uchun tushunarli holga keltirgunga kadar qayta ishlash zarur.

g) anketa savollari izchil bo'lishi va unda ma'lum ichki logika bo'lishi lozim:

d) savollarni aniq tuzish kerak va unda kat'iylikka yo'l kuymaslik kerak. Masalan, “4” va “5” baholarda ukiy olasanmi? yoki “ yaxshirok ukiy olasanmi?”, “ o'zingni bosh kamchiligingni ayt?” kabi savollarning kuyilishi maqsadga muvofiq emas.

4. Kuchma doskaga anketani oldindan yozib kuyish kerak, yoki uni bosmadan chiqarib ko'paytirish kerak.

Respondent savolga diqqat bilan uylab javob qaytarish lozim. Lekin shuni unitmaslik kerakki, uzoq o'ylash ham foyda keltirmayadi. Chunki respodet tadqiqot-chining maqsadini anglab oladi va shunga mos javob qaytaradi. Ba'zan esa javob qaytarishga kiynalib, tengdoshining javobini qaytaradi.

5. Anketa ma'lum bir yoshdagi va sostavdagi respondentining katta guruhsi jalb qilinsa, ishonchli javob olinadi. lekin bu anketaga ming yoki undan ko'prok javob olish degan gap emas. Ba'zan ma'lum tipik guruhdagi o'quvchilar tanlanib ular orasida suxbat bilan anketa o'tkazish mumkin. Bu anketa ob'ekti asosli javoblar olishga yordam beradi.

Anketa savollari respondentni qiziqtiradigan, uni to'g'ri javob berishga undaydigan qilib tuzilishi kerak. Buning uchun esa avval umumiy savollar berilib,

respondentini tekshirilayotganda muammo doirasiga olib kirishi, uni qiziqtirishga va u bilan kontrakt o'rnatishga yordam berishi lozim. Maxsus savollar asta - sekin suxbat-ning o'rtarogida berilishi ancha kulaydir. Savollarning boy, ularning yoshi haqida, ish joyi haqidagi ma'lumotlarning so'ralishi va shunga o'xshash savollarning berilishi ham maqsadga muvofiq emas, bunday savollar anketaning oxirida so'ralishi, yoki bunday ma'lumlarini boshqa yo'llar bilan aniqlanishi ma'kuldir.

Agar respondent to'g'ri javob aytishdan tortinsa, unda yashirin anketalar to'zilai. Bunday anketalarda o'quvchilar javob qaytarib, o'z familiyalarini aytmaydilar. Bunday anketalar ancha to'g'ri javoblar olishga yordam beradi.

7. Anketani o'tkazishdan oldin, savollarga izog' berish va qanday holda javob to'g'ri, qanday holda noto'g'ri bo'lishini tushuntirish kerak. Ba'zan esa, javoblarning bir necha variantlarini berish kerakki, o'quvchi undan o'z muloxazamiga to'g'ri keladigan javobni tanlasin.

Pedagogik tadqiqotda anketa bilan birga kulaniladigan sosiologik metodlardan biri suxbatdir. Pedagogik faoliyatning o'rganishda suxbat metodidan o'zok yillardan beri foydalaniladi. 1899 yildayoq pedagogik faoliyatning motivi to'g'risida 6000 o'qituvchi fikrini analiz qilish asosida tadqiqot bosilib chiqqan edi. 1911 yilda 14 mingdan ortikrok o'qituvchidan olingan anketa so'roqlari statistik tuldirildi.(anketa ma'lumotlari suxbatlar yordamida tekshiriladi.)

Standartlashtirilgan eski rasmiylashtirilgan suxbatlar bo'ladi. Pedagogik tadqiqotchilar standartlash-tirilgan suxbatdan boshlanadi.Chunki u hayotiy vaziyatda, respondentga uning o'rganilayotganligini bildirmasdan utkaziladi. Lekin bunday suxbatning yakunlarini yozib borish biroz kiyinchilik tugdiradi, ba'zan suxbat davomida tadqiqot maqsadga mos bulmagan informasiyalar ham bulib turadi.(ba'zan suxbatdosh boshqa narsaga qiziqib suxbat predmetidan tashqari chikib ketadi) Bunday suxbatlarni yozib borish kiyinligidan, uni yoddan yozishga to'g'ri keladi, bunday suxbatlarni tadqiqotchi savolning harakterini o'zgartirishi, vaziyatga moslab olib borishi ham mumkin. Ba'zan shunday suxbatlar ham utkaziladiki, uning uchun umuman savollar tayyorlanmaydi.Bunday suxbatlar

shaxsning pozitsiyasi, uning xulqini chukkurok o'rganishga yordam beradi. Tadqiqotchi shunday savollar beradiki, respondent o'z halki savoblarini erkin bayon kila boshlaydi.

Standartlashtirilgan suxbatda ma'lum izchillikda aniq to'zilib chiqilgan bo'ladi. Bunday suxbatlar natijasida ro'yxatda olish, uni analiz qilish va taqqoslash ancha engil bo'ladi.

Bu metodning kamchiliklariga vaziyatga chukur kirib borish imkoniyatning yo'qligi, to'g'ri ahamiyatli tushunchalar-ni hisobga olish imkoniyatini ta'minlaydigan xususiyat-larning yo'qligi va shu kabilar kiradi.

Suxbatning bu turdagi kamchiliklar yarim standartlashtirilgan suxbat metodidan foydalanish hisobiga yo'qotiladi. Bu metod o'z ichiga aniq standartlashtirilgan savollarni olish bilan birga tadqiqotchi erkn foydalanishi va suxbat davomida o'zgartirish mumkin bo'lgan savollarni ham oladi.

Yarim standartlashtirilgan va standartlashtirilmagan suxbatlar muammo etarli o'rganilgan va xatto javoblarni ham bilish mumkin bo'lgan davrda kullaniladi. Standartlashtirilmagan suxbatlar esa muammo hali o'rganilmagan u bilan tanishish endi boshlangan davrda kullaniladi.

Test - inglizcha so'zdan olingan bulib, har qanday sinov va hal qanday tekshirish demakdir. “ Test” termini bunday keng ma'noda texnika biologiya, medisina va ximiyada kullaniladi. Psixolo - pedagogik tadqiqotlarda test deb guruh va individual xususiyatlarni kiyosiy o'rganishda kullaniladigan, ma'lum vaktga muljallangan har - xil kiyinchiliklardagi topshiriklarga aytiladi.

30-yillarda eksperemental psihologiya va pedagogi-kada, pedalogiyada bolani o'rganishning asosiy metodi hisoblangan testlardan foydalanish keng tarkaladi. Bu davrda mamlakatimizda testlar va ularning kullanilishi haqida ko'p tirajli kitoblar chika boshladi. Lekn shu davridayok, bir kancha olimlar testlarni qo'llash ko'p noaniq-liklarni keltirib chiqarishni, u metod xavfli ekanligini ta'kidlagan edilar. Bunda ular:

birinchidan, hamma vakt ham o'quvchining kobiliyat-laridan darak beruvchi ma'lumotlarni bolaning rivoj-lanishi va tarbiyalanganlik darajasini harakterlovchi ma'lumotlardan farq qilib bulmaydi;

ikkinchidan, bir ma'lumotnng o'zi shaxsning har - xil sifatlarini bildiradi, bolaning bir kancha motivlarning paydo bo'lishi natijasi bo'ladi.

uchinchidan, testlar asosida juda kengumumlashmalar va xulosalar chiqarish mumkin emas degan xulosadan kelib chiqqan edilar.

Ma'lum sharoitda testlar o'quvchilarni o'rganishga yaxshi yordam berishi mumkin. Uning asosiy maqsadi - xotira, diqqat, tafakkur,bilimga qiziqishlar, umuman turli intellektual faoliyatlardagi o'zgarishlarni rivojlanish darajasida aniqlashdir. Testlar yordamida hayotiy tajriba-lar, qarashlar, fikrlar, xatti- harakat sabblari kabilarni, faqat boshqa tadqiqot metodlari bilan birga qo'llash orkali aniqlash mumkin.

Boshqa metodlar kabi test metodining ham bir kancha afzalliklari bor. Testning foydali tomonlaridan biri shuki, undagi topshiriklar chuqur uylangan va eksperemental sinalib aniq bayon qilingan bo'ladi. Shuningdek, testlar qisqa vaktida tadqiqotchini qiziqtirayotgan o'quvchining ba'zi belgilari - bilimi, tushunchasi va boshqalar haqida yaxlit shakldaga ma'lumotlarni ochib beradi.

Testning yanada muhimrok afzalligi uning ob'ektivligidir. Ma'lumki, ba'zan o'qituvchilar o'quvchining ishlari va uning o'zini baholashda o'zlari xoxlamagan holda sub'ektivizmga yo'l kuyadilar. Buni ular ko'pincha o'z o'quvchilarining yaxshi bilishlari, ularni ko'p yillardan buyon kuzatishlari, ularning ishonishicha ishda yuz bergan ba'zi noaniqliklar tasodifiy ekanligi ta'kidlashlarda kurish mumkin. Xakkatda ham shunday: yaxshi o'qituvchining baxosi o'quvchining alohida ishining baxosiga karaganda aniqrok harakterlanadi. Lekin har - xil maktablardagi katta xajmdagi sinflarni o'rganishda “ sub'ektivlikka” asoslanilsa haqiqiy manzara bo'zib berilishi mumkin. Har - xil sinflarda ma'lum sharoitda kattik nazorat ostida utkazilgan testlar natijasida olingan informasiyalar ancha ishonchli va ob'ektiv bo'ladi. O'rganishning shunday sohalari ham borki, ularda testlar kulay va aynan mos metod hisoblanadi.

To'g'ri va moxirona kullangan testlar shunday ma'lumotlar olish mumkinki, tadqiqotchi bunday ma'lumotlarni boshqa xech qanday yo'l bilan ola olmaydi.

Testlarning bir kator turlari bir necha yillar davomida sinovdan utdi. Bo'lar:

1. Rossolima metodi: turli kesilgan kub, uchburchak, noto'g'ri figuralar va boshqalarni birlashtirib biror narsa yasash Bu metod bolalarning konstruktorlik kobilyatlarini aniqlashga yordarm beradi, bolaning fantaziyasi va mustaqilligi haqida tasavvur beradi.

B. Zbbingauz va Geylbronnerning tuldirish metodi: bunda bolalar qoldirilgan harf, so'zlarni tuldirishlari, rasmni kolgan qismini tugallashlari lozim va boshqalar. She'rlarda ba'zan bir - ikkita so'z yoki katorda bir so'z qoldiriladi, ba'zan esa bir kator ham qoldirilishi mumkin. Bolaga oldin kiyin topshirik beriladi. Masalan, bolaga oldin ko'p joyni tuldirish lozim bo'lgan rasmni tuldirish topshiriladi. Agar bolaning tuldirishi originaldan ancha farq kilsa, unda bolaga boshqa topshirik, ya'ni ozrok joyni tuldirish lozimbo'lgan rasm beriladi. Bunday topshiriklar bolaning kurgazmali tasavvuri darajasini aniqlashga va o'ziga tanqidiy qarashi darajasini aniqlashga yordam beradi. Biror sifatni o'rganishga kullanilgan metoddan (masalan, dikkat) shaxsning boshqa sifatlarini ham o'rganishga qo'llash (masalan, iroda) metodi. Bu priyomdan testlarning asoschisi A. Bine foydalangan edi va u kobilyat ba'zan dikkat, xotira, iroda va boshqalar harakterida ham kurinadi degan edi.

Testlarning quyidagi turlaridan foydalanish mumkin:

- 1) bir- biriga o'xshash uchta romdan bitta yaxshisini ajratish;
- 2) xotiraga asoslanib, xafta davomidagi voqealarni ta'riflash;
- 3).rasmdagi narsalar turli masshtabda tasvirlangan. Qaysi kattalangan, qaysi kichraytirilgan va qaysisi haqiqiy ulchovga to'g'ri kelishini aniqlash;
- 4)oldindan ma'lum tushunchaga yaxshirok ta'rif berish (masalan, Qush deb nimaga aytiladi?
- 5) iboradagi be'manilikni, so'zlashdagi xatoni topish;
- 6) 20 dan birgacha teskari sanash (sarf qilingan vakt);
- 7) urtogining ogzaki tasviriga binoan binodagi bir-biriga o'xshash ikki manzaradan birini aniqlash;

8) kucha maketiga harakat qoidalarini tartibga soluvchi belgilar qo'yib chiqish;

9) fikrlashni talab qilgan savolga javob berish: “ Agar yonib turgan gugurt benzinga tushsa nima bo'ladi? Neftga tushsa-chi?

Yogga tushsa- chi?

10). xikoyada xakikatga to'g'ri kelmaganlarni uchirish;

11) . xikoya qilgan voqea yoki hodisaga munosabatni aytish.

Testlardan foydalanishda bir kancha umumiy qoidalarga rioya qilish zarur:

1. Oldin test yordamida nimani aniqlash mumkinligini aniq belgilash lozim; tarbiyalanganlik darajasi, qiziqish sohasi, layokati va x. Keyin o'rganilayotgan narsaning mezonini aniqlash.(ma'lum sifatning belgilari ro'yxati, shaxsning ma'lum tomonlarini tarbiyalanganlik darajasi, kobilyatning muhim elementlarining mavjudligi va boshqalar). O'rganilayotgan narsaga karab bolalarni urgatish metodi va testlar kompleksi tanlanadi.

2. O'rganilayotgan sifatning ko'rsatkichlari, qanday belgilari va sohalarini u yoki bu test yordamida aniqlash mumkinligini belgilash

3. Qo'shimcha kiyinchiliklarga yo'l kuymaslik uchun test metodikasini puxta uylash. Bolalarning ishlashi uchun zarur sharoitlarniyaratish, testni o'tkazish uchun vaktincha chegaralarni aniqlash, olingan ma'lumotlarni tuplash va ishlab chiqish yo'llarini puxta uylash. Shuningdek, testlarda o'quvchilar bilimini aniqlash lozim bo'lganda kiyin ilmiy terminlarni(maktab o'quv predmetlarida utilmaydigan) ishlatilmagani ma'kulrok.

Shuni ta'kidlash lozimki, testlar darsliklardagi ba'zi paragraflar yoki ularning bo'limlaridan kuchirib ham berilmasligi lozim. Chunki bunday hollarda o'quvchi xech kiyinchiliksiz yoddan aytib berishi mumkin.

4.Testdan olingan ma'lumotlarni kuzatish natijalari, bolalarning tarbiyalanganlik darajalari haqidagi o'z ko'rsatmalari, boshqa tadqiqot metodlari yordamida o'rganilgan sifatlarni harakterlovchi materiallar bilan albatta solishtirilishi lozim. Chunki testboshqa an'anaviy metodlar bilan mustahkam bog'langandagina to'g'ri natija beradi.

5. Testlardan foydalanishda etika va estetika normalariga rioya qilish lozim. Afsuski, ba'zan noto'g'ri ism va familyalarni uchirish tavsiya etiladi, vaholanki bunday familyalar katorida ba'zan insoniyatning atokli namoyandalarining ism va familyalari ham bo'ladi. Shuningdek, topshirikni: “ Rasmdan eng chiroyli kishi tasvirini uchiring”, tarzida ham berish mumkn emas. Bunday hollarda “ eng yaxshi tasvirni doira ichiga oling” deb berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

6. Testlar uyin, musobaka yoki sinov tarikasida utkazilishi mumkin.

7. Test materialari asosida kim sinovdan uta olmagani, uning g'oyaviy, aqliy, axloqiy sifatlari haqida umumlashtiruvchi xulosalar chiqarish mumkin emas. Faqat dikkatining xususiyatlari, xotirasining harakteristikasi, taffakurning o'ziga xosligi, ko'zatuvchanligi haqida fikr yurgizish mumkin. Testlar yordamida tekshirish natijalari bilan har bir kishini tanishtirish uni o'z- o'zini tarbiyalash topshiriklarni aniqlashga kamchiliklarini yo'qotishga yordam beradi.

Reyting - baholash metodi, yoki yaxshi bilgan kishilarning muloxazalariga asoslangan psihologik ulchov.Boshqacharak aytganda, reyting bevosita kuzatish metodi, ma'lum bir hodisani o'rganganda uni juda ko'p yillardan buyon ko'zatib yurgan odamning baholashlariga asoslangan bevosita kuzatish metodi.

Bu metodni ishlab chiqishda birinchilar katorida B.G. Ananov harakat qildi. U o'qituvchilarning bolalar haqidagi emperik bilimlarini psihologik bilimlar manbaiga aylantirish masalasini ishlab chikdi. 20 - 30 yillarda bu metod juda keng kullanila boshlandi.Amerikalik olimlar - Krech, Krachfeld, Torndayk va Xagenlar ishlarida bu metod maxsus ishlab chiqilgan.

Reyting sharoitda ko'zatilgan ma'lumotlarni har - xil baholash yo'li bilan son mikdorida ifodalash mumkin, bu esa natijalarni va olingan ma'lumotlarni tahlil qilishni, hisoblashda matematik apparatlardan keng foydalanish imkonini beradi.

Reytingda tadqiqotchi “ sudyalarga” o'zi yaxshi bilgan kishining u yoki bu sifatlarini baholab berishni iltimos qiladi. Baholash bir kancha o'ziga xos belgilar buyicha va bir butun utkazladi. Baholash individning “ urnini”, “ sudyalalar” ko'rsatgan, ba'zan esa respondentning o'zi ko'rsatgan ketma - ket shkalalar yordamida olinadi. “ Sudyalalar” individga sortlarga ajratish va ularn o'zaro

solishtirish mumkin bo'lgan belgilardek munosabatda bo'ladilar. Buning uchun esa yoki ko'p “ sudyalari”, yoki ko'p baholar kerak.

Reyting metodini to'g'ri kuzatish metodidan afzallik tomonidan biri shuki, u juda tejimli. Masalan: tadqiqotchilardan o'quvchi va o'qituvchilar faoliyatiga tavsif berish uchun ancha ko'p vakt talab qilinadi. Ularning ish tizimini o'rganish undan ham murakkabroq. Reytingda esa tadqiqotchiga pedagogik jamoaning muloxazasi alohida kimmatga ega bo'ladi. Har bir o'qituvchi o'z o'quvchilarining shaxsiy sifatlari haqida aniq va oddiy bo'lsada real tasavvurga ega, har bir maktab direktori va ilmiy bo'lim mudiri o'qituvchi haqida uning o'quvchilari, ota- onalar, ishdagi o'rtoqlarining fikrlarini eshitadi. Agar direktor yoki uning o'rinbosari ko'p yillar davomida shu maktabda ishlayotgan bo'lsa, tadqiqotchini qiziqtirayotgan kishilarning bilimi, shaxsiy xususiyatlari va o'qituvchilar, o'quvchilar faoliyatining xususiyatlarini yaxshi biladilar, reyting metodi asosida bo'larni samarali umumlashtirish mumkin. Bu tadqiqotchining o'zini kuzatishiga ketgan vaktidan kam vakti talab qilinadi.

Reyting yutuqlaridan yana biri shuki bunda kuzatuvchi sudyalari maxsus psixologik tayyorgarlikka ega bo'lmagan lekin o'zlari bilan ishlayotgan kishini yaxshi bilgan, amaliy psixolog kishilardir. Shuningdek, baholash jarayoni kompetent sudyalarda qiziqish uyg'otadi, ularni boshqa kishilarning shaxsiy sifatlari va faoliyati haqida o'ylashga o'rgatadi.

Reyting metodining bosh kamchiliklaridan biri shuki, biz komponent (yaxshi bilgan kishilar) ning sub'ektiv mulohazalariga asosan xulosalar chiqaramiz. Shuning bilan birga tadqiqotchining o'z kuzatuvchilari ham sub'ektivlikdan holi emasligini unutmaslik kerak.

Maxsus tadqiqotlarda baholash prosessida sudyalari yo'l kuyadigan ba'zi tipik xatolar ham uchrashi aniqlangan. Bo'lar:

1. Oliy himmatlik xatolar. Komponent shaxslar o'zlariga tanish bo'lgan kishilarga ancha yuqori baxo berishga intiladilar, ko'proq ularning ijobiy xislatlarini aytib, kamchiliklari haqida kam gapiradilar.

2. Markaziy tendensiyadagi xatolar. Sudyalarko'pincha shkala buyicha oxirigacha muloxaza yurita olmaydilar (ayniksa o'zlari yaxshi bilmagan kishilar haqida).

3. Tarafkashlik yoki g'arazguylik, bir kishining boshqa kishining sifatlarini baholashi ko'pincha unga bo'lgan ijobiy, salbiy munosabatlari asosida bo'lishi mumkin.

4. Logik xatolar. Sudyalar ba'zan xususiyatlarga analogik baholar beradilar, ular bu baholar logik o'zaro bog'liqqa uxshaydi.

5. Kontrast xatolar. O'zining xususiylar sifatlarlari bilan solishtirib birovlariga baxo berish tendensiyasi.

6. Yakinlik xatosi. Makonda va katda ikki baholanayotgan sohaning yakinligi ularning yuqori darajadagi interkorryusiyasiga olib keladi.

Adabiyotlar:

1. Mavlonova R.A., To'rayev O.T., Xoliqberdiyev K.M. - «Pedagogika» T., «O'qituvchi » - 2008 yil.
 2. Bo'ri Ziyomuhedov. "Ilm hikmati." Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti. 1999 y
 3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni (Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori). 1997 yil. T., "Sharq" nashriyoti.
 4. R.Mavlonova, N.Vohidova, N.Raxmonqulova. «Pedagogika nazariyasi va tarixi». Darslik. Fan va texnologiyalar, T., 2010 yil.
- w.w.w. /pedagog/ uz.